

YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI
TA'MINLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7800265>

Kaxorova Anora Nusratovna
Botirova Hulkar Olimjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot fakulteti “Fundamental iqtisodiyot”
kafedrasi assistentlari
e-mail:kahorovaanora1991@gmail.com
e-mail:xulkar botirova@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekistonda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni taminlashda muhim omillardan biri bu mamlakatimiz iqtisodiyoti va eksporti tarkibida chuqur qayta ishlangan, yuqori qo'shilgan qiyomatga ega tayor mahsulotlar ulushini jadal sur'atlarda oshirishga qaratilgan iqtisodiyotni yanada yuksaltirish hisoblanadi. Barqaror rivojlanish asosiy uch ustundan iboratdir. Bular: ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik. Barqaror rivojlanish atrof muhit va tirik mayjudotlarni mahofaza qilishi, mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishiga yordam berishi, shuningdek jamiyat rivojiga hissa qo'shishi kerak. Iqtisodiy va ijtimoiy ustun jamiyat oldiga aholining kambag'al guruuhlariga maqsadli yordam ko'rsatishni o'ziga vazifa sifatida qo'ymoqda. Iqtisodiy -ekologik ustun atrof muhitga tashqi tasiri qiymatini baholash bilan bog'liq g'oyalar olib keldi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, ekologiya, yashil obligatsiya, yashil investitsiya, yashil moliya.

Summary: One of the important factors in ensuring long-term sustainable development in Uzbekistan is the further development of the economy aimed at rapidly increasing the share of highly processed, high-added-value ready-made products in the structure of our country's economy and exports. Sustainable development consists of three main pillars. These are: social, economic and environmental. Sustainable development should protect the environment and living beings, help the country's economy develop, and contribute to the development of society. The economically and socially dominant society sets itself the task of providing targeted assistance to the poor groups of the population. The economic-ecological priority brought ideas related to the assessment of the value of the external impact on the environment.

Key words: Green economy, ecology, green bond, green investment, green finance.

Kirish. Insoniyat kelgusi o'n yillikda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning taqchilligi, bioxilma-xillikning yo'qolib ketishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi kabi juda dolzarb muammolarga duch kelishni boshladi. Ushbu tizimli global inqirozlarning barchasi o'zaro bog'liqligi ularni alohida-alohida hal etib bo'lmasligi, shuningdek, an'anaviy iqtisodiy yondashuv ushbu muammolarning yechimiga qaratilgan ham ekologik, ham ijtimoiy maqsadlarning muvozanatini ta'minlay olmasligi ta'kidlanadi. An'anaviy iqtisodiy yondashuv ortiqcha iste'mol qo'llab-quvvatlanishi, ijtimoiy qamrov sustlashishi hamda tabiiy resurslarning

keskin kamayishiga olib kelsa, “yashil” iqtisodiy yondashuv bularni barchasini rad etib, ijtimoiy farovonlikni hamda ekologik barqarorlik muvozanatini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar sharhi bobida mavzu bo'yicha nazariy, amaliy va empirik adabiyotlarni tahlil qilish asosida mahalliy va xorijiy olimu-tadqiqotchilarning ishlari, fikrilarini va xulosalarini o'rganib chiqdik. Undan tashqari mavzu bo'yicha mahalliy meyoriy hujjatlarni tahlil qilamiz. Barqaror rivojlanishni taminlashda “yashil iqtisodiyot” o'z o'mniga ega. Shu tufayli eng avvalo “yashil iqtisodiyot” tushunchasi va “yashil iqtisodiyot”ga o'tish jarayoniga to'xtalsak: Yashil iqtisodiyot - bu insoniyat va tabiat o'rtaсидаги уйг'ун о'заро тасирни qo'llab quvvatlaydigan va bir vaqtning o'zida har ikkala ehtiyojni bir hil qondirishga harakat qiladigan, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyotning metadalogiyasidir. “Yashil iqtisodiyot” tushunchasining mohiyatini yoritib berishda umum qabul qilingan yondashuvlarning mavjud emasligi “yashil iqtisodiyot” konsepsiyaning hali shakillanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, “yashil iqtisodiyot” nazariyasi, tamoyillari yoki “yashil iqtisodiyot” siyosatiga nisbattan ham qo'llanilishi mumkin. “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni taminlash va investitsiyalar faolligini oshirish bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlantirishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda jalb etish zarur bo'ladi. O'zbekiston Respublikasini Prezident tomonidan 2022 yil 28 yanvardagi” 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son farmonda belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, shuningdek, Parij bitimi majburiyatları bajarilishini hamda “yashil” iqtisodiyotga o'tishini ta'minlash maqsadida quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilanishi ko'rsatilib o'tilgan [PF-60.2022]. Shuningdek 2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'naliishlari etib quyidagilar belgilangan:[PQ-4477, 2019]

- ✓ iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;
- ✓ energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;
- ✓ iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;
- ✓ “yashil” iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish;

Metodologiya. Maqolada tizimli tahlil, statistik-iqtisodiy va ilmiy abstraktsiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil hamda qator boshqa usullardan foydalanildi.

Natijalar va tahlil. Milliy ishlab chiqarish va eksport tarkibida chuqur qayta ishlangan, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim omili bo'lib hisoblanishini bugungi kunda hech kimga sir emas. O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish nafaqat ichki, balki global jarayonlar va muammolarni hisobga olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan barqaror iqtisodiy rivojlanishning yangi, resurslardan samarali foydalanishga

asoslangan, innovatsion iqtisodiyotga o'tish izchil tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va barqaror taraqqiyotning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

1-jadval

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Trln.so'm	2020-yilga nisbatan %hisobida
YaIM jami	734,6	107,4
Qishloq xo'jaligi	317,8	104,0
Qurilish	107,4	106,8
Investitsiya	245,0	105,2
Sanoat ishlab chiqarish	451,6	108,7
Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	152,0	113,5
Xorijiy savdo aylanmasi	42,1	116,0

Manba: Davlat statistika qo'mitasi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi 580,2 trln so'mni tashkil etdi. 2019 yil bilan taqqoslaganda o'sish 1,6 % ni tashkil etdi. Unga ko'ra, mahsulot qiymati 341,5 trln so'm, xizmatlar esa 194,4 trln so'm va soliqlar esa 44,3 trln so'mni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilda qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning 25 % ni, xizmatlar 35,7 % ni, sanoat 25,8 % ni, qurilish 6,2 % ni va eksport, import mahsulotlariga sof soliqlar 7,2 % ni tashkil qildi. YQQ 2021 yilda 7,5 % ga ko'payib, 681,4 trln so'mni tashkil etdi. O'tgan yili iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari sanoat va xizmatlar sohasi bo'lib, mos ravishda 9,2 va 8,7 % ga o'sgan. 2021 yilda O'zbekistonga kelib tushgan transchegaraviy pul o'tkazmalari 2020 yilga nisbatan 33,8 % ga ortib 8,1 mlrd. dollarga yetdi. Xususan, qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirishning maqsadli parametrlariga asosan 2025-yilga kelib elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlari tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining hissasini 12,7 foizdan 19,7 foizga etkazish ko'zda tutilmoqda. Bunda gidroelektrostantsiyalar ulushini 12,7 foizdan 15,8 foizga, quyosh energetikasi 2,3 foizga hamda shamol energetikasi 1,6 foizga etkazish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, qarorga asosan 2017-2025 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish bo'yicha umumiyligi 5,3 milliard dollar bo'lgan 810 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Qolaversa, ijtimoiy soha va agrar sektor ob'ektlarida zamonaviy energiyani tejaydig'an texnologiyalarni joriy etish hisobidan 56,5 million kub metrdan ortiq tabiiy gaz hamda 807,3 million kVt.saatdan ortiqroq elektr energiyasini tejab qolishga erishiladi. Ekspertlar fikriga ko'ra, 2025-yilga qadar O'zbekistonda muqobil energiya manbai 12,7%dan 19,7%ga yetishi kerak. Muqobil energiya tarkibida quyosh energiyasi ulushi 2,3%ga, shamol energiyasi ulushi— 1,6% ga yetadi. Shuningdek, ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan energiya hisobidan har yili 9,79 mln tonna shartli yonilg'i miqdorida energiya tejash kutilmoqda.

Bugungi kunda energiya tejamkorligini oshirish, ekologik toza, noan'anaviy va qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini yanada kengaytirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan unumli foydalanish yer osti boyliklari zahiralarini tejash barobarida ekologiyaga chiqarilayotgan zararli gazlarning miqdorini kamaytirish imkonini beradi. Shu bois butun dunyoda iqtisodiyotning turli sohalarida muqobil energiya manbalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilyapti.

O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarining texnik imkoniyat ko'rsatkichlari



Manba: Davlat statistika qo'mitasi

Bugungi kunda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi umumiy hajmining 10 foizini qayta tiklanadigan energiya manbaları, qolgan 90 foizi ananaviy manbalar tashkil etadi. O'zbekiston geografik joylashuvi va iqlim sharoiti tufayli qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini oshirish imkoniyatiga ega. Ekspertlar bergen ma'lumotlarga ko'ra milliy iqtisodiyot energiya sig'imdonligi rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan 2-2,5 baravar ko'proqdir.

Xulosa.

Keyingi yarim asr mobaynida sayyoramizda ekologik xavf-xatarlar miqdori ortib borayotgani mutaxassis-olimlarni jiddiy tashvishga solayotir. Iqtisodiy taraqqiyot maqsadlarida energiyadan foydalanishning me'yorida ortibketishi muammoning asosiy sababi sifatida e'tirof etilmoqda. Yoqilg'inining organik turlaridan foydalanuvchi elektr va issiqlik stansiyalari hamda ichki yonuv dvigatellaridan chiqayotgan zararli gazlar tufayli atrof-muhit ifloslanmoqda. Yillar davomida atmosferaga zararli moddalar qoldiqlarini katta miqdorda chiqarib yuborilishi natijasida ozon qatlamiga putur yetgan, Yerda esa global energiya tanqisligi vujudga kelmoqda. Natijada dunyo iqlimining o'zgarishi, energiya quvvati manbalarining kamayishi butunjahon oziq-ovqat tanqisligi muammosi bilan chambarchas bog'lanib, insoniyat oldiga ulkan muammolarni qo'ymoqda. Bundan tashqari, dunyo aholisi sonining muttasil oshib borayotgani sababli energiyaga bo'lgan talabni mavjud energiya tizimlari ta'minlab bera olmaydigan vaziyat yuzaga kelmoqda. Dunyoning 65dan ziyod mamlakatlari o'z oldiga quyosh, shamol, suv energiyasidan foydalanish orqali muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, shuningdek, vodorod, biogaz va boshqalardan kengroq foydalanishga qaratilgan maqsadlarni qo'yishgan. Yashil iqtisodiyot deganda, odamlar va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni rivojlantirishga va har ikkalasining ham ehtiyojlarini bir vaqtning o'zida qondirishga qaratilgan yondashuvni ishlab chiqishga qaratilgan iqtisodiy intizom tushuniladi. Yashil iqtisodiyot ekologik iqtisod bilan chambarchas bog'liq, biroq undan farq qiladi, chunki bu barqaror yechimlarning siyosiy targ'ibotini o'zida qamrab olgan yaxlit yondashuv hisoblanadi. O'zbekistonda uzoq muddatli istiqbolli "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasida ham asosiy to'rtta ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib asosiy etibor energiya samaradorligini oshirishga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'zlashtirishga, iqlim o'zgarishlari oqibatiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning iqtisodiy mehanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini

kamaytirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqishga joriy etish, shuningdek tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo’nalishi hisoblanadi. Bu esa o’z navbatida energiya xavfsizligiga, bo’sh ish o’rinlarini yaratilishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga va mamlakat rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mo’mnov A. «Iqtisodiy o’sish va uning omillari nimalardan iborat» //O’zbekiston ovozi. 2020-yil 20-may.
2. Barqaror iqtisodiy o’sish va uni ta’minalash bosqichlarining tahlili, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, №6, noyabr-dekabr, 2020-yil
3. “Yashil iqtisodiyot” asosida barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minalashning nazariy va amaliy jihatlari, “XXI asr: fan va ta’lim” ilmiy electron jurnali. №2, 2017.
4. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash-barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minalashning muhim sharti, “Iqtisodiyot va Ta’lim” ilmiy jurnali, №2, 2017.
5. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, №1, yanvar-fevral, 2017.92
6. Т.В. Захарова «Зеленая» экономика как новый курс развития: глобальный и региональный аспекты. Вестник Томского государственного университета, №4(16), 2011.
7. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления /Под ред. В.В. Попкова. Учебник. М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. – 295 с.
8. «Зеленая экономика» как глобальная стратегия развития в посткризисном мире. «Зеленая» экономика и ее будущее, "Экономика. Налоги" журнал. №6. 2019.
9. O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo’mitasi “O’zbekiston hududlarining yillik statistik to’plami” – T.: -2021
10. O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qomitası “O’zbekiston Respublikasining Statistik axborotnomasi” – T.: -2021.
11. www.lex.uz – O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari sayti. www.nrm.uz
12. www.gov.uz – O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining sayti.
13. www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo’mitasi
14. www.cbu.uz – O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki.